



## OPPORTUNITIES FOR FURTHER DEVELOPMENT OF TOURISM IN JIZAKH REGION

**Mashrab Rustamovich Usmanov**

*Jizzakh State Pedagogical University*

*Doctor of Philosophy (PhD) in Geographical Sciences, Associate Professor*

*e-mail: [mashrabusmonov79@gmail.com](mailto:mashrabusmonov79@gmail.com)*

*Jizzakh, Uzbekistan*

**Nazarbek Khudoyberdiyev**

*Jizzakh State Pedagogical University*

*2nd-year student, Geography program*

*e-mail: [nazarbekxudoyberdiyev08@gmail.com](mailto:nazarbekxudoyberdiyev08@gmail.com)*

*Jizzakh, Uzbekistan*

**Fotima Kodirova**

*Jizzakh State Pedagogical University*

*2nd-year student, Geography program*

*e-mail: [@fotimanazarova559@gmail.com](mailto:@fotimanazarova559@gmail.com)*

*Jizzakh, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** growing tourism, adopted state programs for the development of tourism, the potential of ecological tourism, ecotourism in the Zamin, Bakhmal, and Forish districts, pilgrimage tourism, the main goals of the development of the tourism sector until 2030 and gastronomic tourism, accommodation facilities, important aspects of further development of tourism in the Jizzakh region.

**Received:** 05.04.26

**Accepted:** 06.04.26

**Published:** 07.04.26

**Abstract:** This article provides detailed information about the fact that tourism is one of the fastest growing sectors in the current period of rapid growth, the state programs adopted for the development of tourism in 2020-2025, the potential of ecological tourism, the ecotourism direction of Zamin, Bakhmal, and Forish districts, pilgrimage tourism, the main goals of the development of the tourism sector until 2030, gastronomic tourism, accommodation facilities, and important aspects of further development of tourism in the Jizzakh region.

## JIZZAX VILOYATIDA TURIZM SOHASINI YANADA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Mashrab Rustamovich Usmanov**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*e-mail: [mashrabusmonov79@gmail.com](mailto:mashrabusmonov79@gmail.com)*

Jizzax, Uzbekistan

**Nazarbek Xudoyberdiyev**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Geografiya yo'nalishi 2 kurs talabasi

e-mail: [nazarbekxudoyberdiyev08@gmail.com](mailto:nazarbekxudoyberdiyev08@gmail.com)

Jizzax, Uzbekistan

**Fotima Qodirova**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Geografiya yo'nalishi 2 kurs talabasi

e-mail: [@fotimanazarova559@gmail.com](mailto:@fotimanazarova559@gmail.com)

Jizzax, Uzbekistan

---

## MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit so'zlar:** o'sib borayotgan turizm, turizmni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari, ekologik turizm salohiyati, Zomin, Baxmal, Forish tumani ham ekosayyohlik yo'nalishi, ziyorat turizmi, 2030-yilgacha turizm sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari va gastronomik turizm, joylashtirish vositalari, Jizzax viloyatida turizmni yanada rivojlantirish muhim jihatlari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turizm hozirgi shiddat bilan yuksalayotgan davrda eng o'sib borayotgan sohalardan biri ekanligi, 2020-2025-yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari, ekologik turizm salohiyati, Zomin, Baxmal, Forish tumani ham ekosayyohlik yo'nalishi, ziyorat turizmi, 2030-yilgacha turizm sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari va gastronomik turizm, joylashtirish vositalari hamda Jizzax viloyatida turizmni yanada rivojlantirish muhim jihatlari haqida batafsil ma'lumot berib o'tilgan.

---

## ДЖИЗАКСКАЯ ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМ СОХАСИНИ ЯНАДА РИВОЙЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

**Маишраб Рустамович Усманов**

Доктор философии (PhD) по географическим наукам, доцент

Джизакский государственный педагогический университет

[mashrabusmonov79@gmail.com](mailto:mashrabusmonov79@gmail.com)

Джизак, Узбекистан

**Назарбек Худойбердиев**

Джизакский государственный педагогический университет

Студент 2 курса, направление «География»

e-mail: [nazarbekxudoyberdiyev08@gmail.com](mailto:nazarbekxudoyberdiyev08@gmail.com)

Джизак, Узбекистан

**Фотима Кодирова**

Джизакский государственный педагогический университет

Студентка 2 курса, направление «География»

e-mail: [@fotimanazarova559@gmail.com](mailto:@fotimanazarova559@gmail.com)

Джизак, Узбекистан

---

## О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** Развитие туризма, принятые государственные программы развития туризма, потенциал экологического туризма, экотуризм в Заминском, Бахмальском и Форишском районах, паломнический туризм, основные цели развития туристического сектора до 2030 года и гастрономический туризм, объекты размещения, важные аспекты дальнейшего развития туризма в Джизакской области.

**Аннотация:** В данной статье представлена подробная информация о том, что туризм является одним из наиболее быстрорастущих секторов в нынешний период стремительного развития, о государственных программах развития туризма на 2020-2025 годы, о потенциале экологического туризма, об экотуристическом направлении Заминского, Бахмальского и Форишского районов, о паломническом туризме, об основных целях развития туристического сектора до 2030 года, о гастрономическом туризме, объектах размещения и важных аспектах дальнейшего развития туризма в Джизакской области.

**Kirish.** Keyingi yillarda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turizm xizmatlari global yalpi ichki mahsulotning qariyb 10 foizini tashkil etib, bandlik va hududiy rivojlanishda muhim rol o'ynamoqda. Mazkur tendensiya rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham turizmni iqtisodiy o'sishning strategik drayveriga aylantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, 2020-2025-yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari doirasida hududiy turizm salohiyatini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va marketing faoliyatini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan mahalliy va xorijiy turistlar soni oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, hududlar kesimida turistik oqim notekis taqsimlangan. Jizzax viloyati tabiiy-rekreasion resurslar (Zomin milliy bog'i), tarixiy-madaniy obidalar hamda qulay geografik joylashuvga ega bo'lishiga qaramay, turizm xizmatlaridan olinayotgan iqtisodiy samaradorlik hali yetarli darajada emas. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur holat ko'p jihatdan hududda zamonaviy marketing yondashuvlarining yetarli darajada joriy etilmaganligi, turistik mahsulotlarni targ'ib qilish va hududiy branding mexanizmlarining sustligi bilan izohlasak bo'ladi. Shu boisdan Jizzax viloyatida turizm xizmatlarini rivojlantirishda zamonaviy marketing yondashuvlarining iqtisodiy ahamiyatini ilmiy asosda o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Toshkentdan Samarqandga avtobusda yetib olish uchun o'rtacha uch yoki to'rt soat vaqt sarflanadi. Bunda tabiiyki avtobusda ketayotgan sayyohlarda bir nechta ehtiyojlar

paydo bo'lishi mumkin. Masalan sanitariya-gigiena shahobchasiga bo'lgan yoki tamaddi qilib olishga bo'lgan ehtiyoj. Bu masalalarda ham o'ziga yarasha muammolar mavjud. Toshkentdan yo'l olgan avtotransport vositasi albatta Jizzax shahrida yoqilg'i quyib olish uchun to'xtab o'tadi. Yoqilg'i quyish shahobchasida o'ziga yarasha sanitariya - gigiena va tamaddi shahobchalari mavjud ammo ular talab darajasida emas. Shuningdek Jizzax shahri mana shu qatnov qismining o'zida ekologik, ziyorat va gastronomik turizm tashkillashtirish salohiyati ega. Jizzaxda qaysidir ma'noda qizqarli va hayratga soluvchi Sangzor daryosi oqib o'tgan, uning noyobligi esa yer sharidagi daryolarga nisbatan teskari shimolga tomon oqishida ekanligini ta'kidlash lozim.

Misol uchun ekologik turizm salohiyatiga e'tibor qaratsak. Viloyat ekoturizmi salohiyatlaridan yana biri tabiat manzaralarining juda go'zalligida. Ayniqsa O'zbekistonga turistlarni bahor va kuz fasllarida ko'proq kelishini hisobga olgan holda Jizzax viloyatining qir, adirlarining ulkan qismida joylashgan 1928 yilda tashkil etilgan Zomin davlat qo'riqxonasi tashrif buyurish ham sayyohlarni qiziqтира oladigan o'ziga hos tabiat manzarasidir. Yo'lning qatnov qismida gastronomik turizmni rivojlantirish uchun gigiena va sanitariya koidalari mos keladigan milliy taomlar tayyorlovchi tamaddixonalarni tashkillashtirilishi va bu yerda tamaddi qilayotgan sayyoh wi-fi zonalaridan bepul foydalana olishligi kerakligidir.

O'tgan yillar mobaynida ekoturizmni rivojlantirishda qilingan yana bir yangilik Zomin – Baxmal o'rtasidagi tog' orasidagi yo'lning ochilishi bo'ldi. Ana shu yangi ekoturistik yo'nalish ochilishi tufayli joriy yilning birinchi yarmida Baxmal tumaniga mingdan ortiq xorijiy va o'n mingdan ziyod mahalliy sayyoh tashrif buyurdi.

Viloyatning Forish tumani ham ekosayyohlarni eng ko'p qiziqtirayotgan hududlardan biri. Tumanning boy tabiiy biologik xilma-xilligi betakrordir. Shuning uchun bu tumanda ham mehmon uylariga ehtiyoj katta. Hozir tumandagi Uxum, Asraf, Ko'hna Forish qishloqlarida hudud tabiati bilan tanishish maqsadida kelgan sayyohlar yashashi uchun o'ndan ziyod mehmon uylari faoliyat yuritmoqda.

Ziyorat turizmi uchun esa, voha qatnov qismida Amir Temur darvozasi nomi bilan mashhur bo'lgan yodgorlik mavjud. Mazkur qoyalar Amir Temur bobomizning anchadan-ancha zafarli yurishlariga, masrur, quvonchli onlariga guvoh bo'lgan. Shuning uchun ham, manguga zanjirlangan bu ikki tog' ajraladigan manzil tarixiy timsolga aylangan.

Bundan tashqari turizm sohasini jadal rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi "Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-217-son Farmoniga muvofiq, iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim sektori sifatida turizm sohasining tizimli va barqaror rivojlanishini ta'minlash, sohada davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish,

ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hamda milliy turistik mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan.

Bu Farmonda 2030-yilgacha turizm sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib ularga: (a) turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini amaldagi 3,5 foizdan 7 foizgacha yetkazish; (b) chet ellik turistlarning yillik sonini amaldagi 10 mln nafardan 20 mln nafargacha yetkazish, shu jumladan, to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan turistlar oqimini ko'paytirish; (v) turizm xizmatlari yillik eksporti hajmini 6 mlrd AQSh dollaridan oshirish; (g) O'zbekistonning turistik shaharlari o'rtasidagi transport bog'lanishini yaxshilash, ichki aviaqatnovlar sonini ko'paytirish hamda yo'lga sarflanadigan vaqtni kamida 3 baravarga qisqartirish; (d) 4 va 5 yulduzli mehmonxonalar sonini 2 baravarga oshirish; (j) turistik xizmatlar va mahsulotlarni diversifikatsiya qilish orqali respublikaning turistik salohiyatini to'liq ishga solish; (z) jahonda keng taniladigan O'zbekistonning turistik brendini yaratish va milliy turistik mahsulotlarni ommalashtirish uchun yangi instrumentlarni joriy etish va boshqa sohalarni rivojlantirishga alohida etibor qaratilgan.

Turizmga ishtiyiq tug'diruvchi sabablar haqida gap ketganda, mazali taomni tatib ko'rish muzeyni tomosha qilish va me'morchiliklar zavq olish bilan barobardir. Bugungi kunda viloyatda eng ommabop amaliyotlardan biri gastronomik turizmni rivojlantirishdir. Ma'lumki, gastronomiyaning sayyohlik qadamjolarini boshqarish, madaniyatlarni qo'llab-quvvatlash hamda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash borasida kuchli salohiyati bor.

Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi Jizzax viloyati hududiy boshqarmasidan ma'lum qilinishicha, Jizzax viloyatiga har yili o'rtacha 6 mingga yaqin xorijiy va 800 mingdan ortiq mahalliy sayyoh kelmoqda. Ayni vaqtda esa ularga viloyatdagi 22 mehmonxona, 7 xostel va 40 ga yaqin oilaviy mehmon uylari xizmat ko'rsatmoqda.





### **Joylashtirish vositalari va mehmon uylari**

Viloyatda turizmning rivojlanishi bilan mehmon uylariga bo'lgan talab ortayotir. Ayniqsa, so'lim tabiatli Zomin tumanida mehmon uylari soni tez sur'atlar bilan ko'paymoqda. Joriy yilda tumanning ekosayyohlar, dam oluvchilar eng ko'p tashrif buyuradigan Duoba qishlog'ida "Har bir oila - tadbirkor" dasturiga asosan "Agrobank"ning tuman filialidan imtiyozli kredit ajratilgan edi.

Demak xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, viloyatda turizm sohasida amalga oshiriladigan ishlar juda ko'p bo'lib, ularni rivojlantirishda barcha imkoniyatlardan to'liq foydalanish zarur. Olib borilgan chora tadbirlar asosida Jizzax viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish muhim deb hisoblaymiz:

- turizmda mavsumiy davrni uzaytirish, ko'rsatiladigan xizmat turlarini ko'paytirish va turizm infratuzilmasini yaxshilash;

- mehmonxonalarni ko'paytirish, shu bilan birga, bu yo'nalishda xususiy joylashtirish ob'ektlari va mehmon uylari tashkil etish;

- sayyohlar tashrif buyuradigan maskanlar va avtomagistral yo'llar bo'yida sanitariya-gigiena shoxobchalarini ko'paytirish suvenirilar ishlab chiqarish va ularni maxsus kiosklarda sotish, aeroportlarda faoliyat yuritadigan "Dyuti fri", "Taks fri" tizimidagi savdo shoxobchalarini turistik shaharlarda ham ochish, tadbirkorlik sub'ektlarini jalb qilgan holda avtomobil ijarasi markazlari va wi-fi zonalar tashkil etish. Bu masalalar mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda mavjud imkoniyatlarimizdan keng foydalanish viloyatimizga xorijiy turistlar oqimi ko'payishiga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". - PQ-4755-son, 19.05.2020.

2. Окилова Ирода Баходир кизи. Экономическое значение современных маркетинговых подходов в развитии туристических услуг в джизакской области. 3138. Магистрант Университета Самбрам.

3. World Tourism Organization (UNWTO). Tourism and Economic Growth: Global Report. - Madrid: UNWTO, 2022.

4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O‘zbekistonda turizm faoliyati bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar. - Toshkent, 2024.

5. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi. Jizzax viloyatining xizmatlar eksporti tarkibi (yanvar-oktabr, 2024). - Jizzax, 2024.